

**BUXGALTERIYA HISOBI NAZARIYASI FANI USLUBIYOTIDA
AKTNING O'RNI****Turayeva Gulizahro***Guliston Davlat Universiteti o'qituvchisi***Axmadjonov Boburjon***Guliston Davlat Universiteti talabasi***Bobojonov Maqsadbek***Guliston Davlat Universiteti talabasi***Boynazarov Shoxrux***Guliston Davlat Universiteti talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqola buxgalteriya hisobi fanining nazariy asoslari va buxgalteriya hisobi fanini rivojlanishida AKT ning o'rni hamda ahamiyati va bunga sababchi omillarga bag'ishlanadi. Buxgalteriya hisobini yuritishda qo'llaniladigan tizimlar zanjiri rivojlanishi uchun hissa qo'shgan olimlar va ularning fikrlari, ta'riflari aks etgan.

Kalit so'zlar: Buxgalteriya hisobi, buxgalterlar, korxonalarda buxgalteriya tizimi, EHM, IS buxgalteriya, Excel.

Kirish

Keyingi yillar mobaynida xalqaro standartlarga to'la-to'kis javob beruvchi buxgalteriya hisobi tizimini yaratish borasida ko'pgina islohotlar olib borilmoqda. Buxgalteriya hisobidan foydalanuvchilar doirasi ancha kengayib borayotganligi, integratsiya jarayonlari chuqurlashayotganligi, qo'shma korxonalar barpo etilayotganligi, jahon moliya bozoriga chiqilayotganligi sarmoyalar, ishchi kuchi va valyutaning ayrim mamlakatlar o'rtasida erkin harakatlanishi zarurligi buxgalteriya hisobi tizimini jahon standartlariga ko'chirishni yanada qattiqroq talab qilmoqda.

Muhokamalar va natijalar

Buxgalteriya hisobi-har qanday mulkchilik shaklidagi korxonalar xo'jalik faoliyatini yalpi, uzluksiz kuzatish va nazorat qilish, sodir bo'lgan voqea-hodisalarni hisob registrlarida qayd qilish, ularga ishlov berish hamda hujjatlarga asoslangan holda moliyaviy hisobot ko'rinishida axborotlarni foydalanuvchilarga taqdim qilish tizimidir. Xo'jalik hisobi asosan quyidagi funksiyalarni bajaradi: a) iqtisodiyot tarmoqlarida sodir bo'layotgan xo'jalik jarayonlarini kuzatib borish; b) kuzatish orqali olingan ma'lumotlarni miqdoriy ko'rsatmalarda ifodalash;

c) korxonalar, tashkilot, muassasalar xo'jalik faoliyatlarini kuzatish natijalarini maxsus hujjatlarda qayd etish; d) maxsus hujjatlarda aks ettirilgan ma'lumotlarni umumlashtirish va guruhlashtirish, xo'jalik jarayonlari ustidan nazorat o'rnatish hamda ularga ta'sir etishdir. Buxgalteriya hisobining paydo bo'lishi tarixi uzoq o'tmishda, miloddan avvalgi IV asrga borib taqaladi, uning paydo bo'lish davrini



aniqroq aniqlash qiyin. Arifmetika va yozuvning rivojlanishi buxgalteriya hisobining paydo bo'lishi uchun asos bo'ldi. Qadimgi dunyoda birinchi buxgalteriya usullari inventarizatsiya va buxgalteriya hisoblari edi. Arxeologlar Frot va Dajla daryolarining vodiylarida - Bobiliya, Nil daryolari - Qadimgi Misrda buxgalteriya hisobining paydo bo'lishining dastlabki izlarini qayd etdilar. Buxgalteriya hisobi yuritishning yangi davri EHMLar paydo bo'lishi bilan bog'liq. 1925-yilda V. Bush elektr releli yig'ilgan birinchi hisoblash mashinasini yaratdi. Bu avtomatlashtirishda emas, balki texnologiyada yangi qadam edi. Hisoblash jarayonini boshqarish hali ham odam zimmasida edi. 1944-yilda hisoblashlarni boshqarish avtomatik amalga oshiriladigan «Mark-1» tipidagi releli mashina yaratildi. Bu mashinaning yangi elementi boshqarish qurilmasidir. Biroq, har qanday mexanik qurilma kabi, «Mark-1» mashinasi ham hisoblash texnologiyasida sifat o'zgarishiga olib kela oladigan tezkorlikka ega emas edi. EHMLarning bir necha avlodlari takomillashib bugungi zamonaviy kompyuter ko'rinishiga keladi. To'rtinchi avlod EHMLari 75-yillardan boshlab vujudga kelib, katta integral sxemalar (KIS) asosida yaratilgan. EHMLarni avlodlarga ajratishda ularning qanday elementlardan yasalganligiga qarab emas, balki ularning ishi qanday tashkil etilganligiga va qanday dasturlar asosida ishlashiga ham e'tibor berishimiz kerak. Bu EHMLar orqali hisoblashlarni avtomatlashtirish orqali buxgalteriya hisobi yuritishni yanada osonlashtirdi. Dastlab 1979-yili Visicals nomi bilan Software Arts firmasida jadvallar bilan ishlovchi dasturiy taminot paydo bo'ldi, 1997-yilga kelib Microsoft tomonidan Excel dasturi taqdim etildi, bu dastur boshqalariga nisbatan juda juda qulay edi. Shundan so'ng "1S Buxgalteriya" buxgalteriya faoliyatini avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minot ishlab chiqiladi. 1S Buxgalteriya dasturi Rossiyaning 1S kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan.

Xulosa:

Xuddi shu kabi buxgalteriya hisobini axborot texnologiyalari orqali yuritish ham yuqori samara berishi hech kimga sir emas. Bu borada, mamlakatimizda yetarlicha amaliy tajriba orttirilgan. Buxgalteriya hisobi yuritilishining avtomatlashishi korxonalar va tashkilotning samaradorligini yanada oshirishi amalda isbotini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Sh.Kabirov. "PEDAGOGS" international research journal. "Buxgalteriya hisobi yuritish va audit haqida".
2. A.B.Muxametov. B.Matrasulov.G.Turayeva T.:Buxgalteriya hisobi darslik. Ziyo nashr. 2023.-347 b
3. A.B.Muxametov. U.Chorshanboyev. G.Turayeva T.:Boshqaruv hisobi darslik.



. Ziyo nashr. 2024.-169 b

4. Gulizahro, T., & Ziyodulla, T. (2023). MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH. *Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения*, 1(6), 137-139.
5. Gulizahro, T., & Zebiniso, R. (2023). KORXONADA ISHLAB CHIQRILADIGAN MAHSULOTLARNING O'RTACHA MIQDORLARI TAHLILI (MEBEL SAVDOSI TAHLILI MISOLIDA). *Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения*, 1(6), 178-180.
6. Turayeva, G., Yusufaliyev, O., Xaydaraliyev, N., Yusupov, N., Oripov, S., & G'aniyev, O. (2023). ASOSIY VOSITALARINI IJARAGA OLIH HISOB. *Наука и технология в современном мире*, 2(14), 49-52.
7. qizi To'yeva, M. S. (2022, November). YANGI O'ZBEKISTON ORIFA AYOLLARI VA G'ARB AYOLLARINING JAMIYATDAGI MAVQEYI VA ULARNING HUQUQLARI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 74-81).
8. Nurillayev, J. Y. (2022). The role of corporate management system in providing financial security in commercial banks.
9. Asatullaev, X., Tursunov, B., & Mamanazarov, A. (2019). Enterprise development strategy. Text of lectures.
10. Abdurahmanova, M., & Olimova, M. (2022). KORPUS LINGVISTIKASINING AHAMIYATI. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).